

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60210400 – Dizayn bakalavriat ta'lif yo'naliishing

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" iyun dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | bet |
|---|-----|
| 1. Umumiy tavsifi..... | 4 |
| 1.1. Qo'llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi | 4 |
| 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari..... | 4 |
| 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari..... | 4 |
| 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. Kasbiy vazifalari..... | 5 |
| 2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar | 6 |
| 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar | 7 |
| 4. Dual ta'lim bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar..... | 7 |
| 5. Fanlar katalogining tuzilishi | 8 |
| Bibliografik ma'lumotlar..... | 14 |
| Kelishuv varag'i..... | 15 |

1. Umumiy tavsifi

60210400 – Dizayn ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 60210400 – Dizayn ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Davlat va nodavlat loyiha tashkilotlari, loyhalash institutlari, dizayn studiyalarida dizayn-loyihalarni yaratish hamda ularni asoslash, soha bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va takomillashtirish, dizayn-loyihalarni bajarish, texnik asoslangan loyiha bo'yicha dizayn obyektlarini yaratish, zamonaviy kompyuter dasturlari asosida dizayn obyektlarini loyihalash, texnika va texnologiyasini qo'llash, loyiha xarajatlarini ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda dizayn obyektlarini loyihalash hamda yaratish, shuningdek, O'zbekiston Badiiy akademiyasi qoshidagi badiiy ijodkorlar uyushmasida erkin ijodiy faoliyat olib borish, yakka tadbirkorlikda ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

Davlat va nodavlat loyiha tashkilotlari, loyhalash institutlari, dizayn studiyalarida dizayn-loyihalarni yaratish hamda ularni asoslash, soha bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida **dizayner**.

60210400 – Dizayn bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy–tadqiqot;*
- *tashkiliy–boshqaruv;*
- *loyihaviy–konstrukturlik;*
- *axborot–tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60210400 – Dizayn ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan dizayn va uning metodologiyasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rghanish;

soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

soha bo'yicha ijodiy loyihalarni bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

dizayn sohasida mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko'rish;

dizayn sohasida texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Loyihaviy-konstrukturlik faoliyatida:

dizayn bilan bog'liq sohalarda ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

dizayn mahsulotlarining jozibadorlik ko'rsatkichlarini nazorat qilish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tilining qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lган baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

kasbiy sohasidan kelib chiqib turli ashylardan dizayn obyektlarini yaratish, dizayn-loyihani ishlab chiqish va uning asosnomasini tayyorlashni;

dizaynning turi va sohasidan kelib chiqib ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bo'yicha texnik reglament, texnologik, texnik jihatdan tartibga solish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

korxonaning maqsadi va strategiyasiga muvofiq uning xususiyatlari va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifat siyosatini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqishi;

dizaynnig zamonaviylik, uyg'unlik, iste'molchi uchun jozibadorlik, raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab

chiqish va amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Dual ta'lim bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar.

Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ular tomonidan tanlagan ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha zarur amaliy ko'nikmalarni egallashi, shuningdek, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatining ijodiy tajribasini o'rganish, talabalarning kelajakdagi mutaxassisligi bo'yicha kasbiy va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish, ular tomonidan o'quv jarayonida olingan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, bitiruvchilarda oliy ma'lumotga ega bo'lishi bilan birga muayyan "Kasb egasi" malaka ko'nikmasini ham shakllantirish, oliy ta'lim tashkiloti va korxonada o'qitishni amalga oshirish, shuningdek, oliy ta'lim tashkilotining o'quv jarayoniga yangi o'qitish texnologiyalarini joriy etish orqali bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida dual ta'lim bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yiladi.

Bunda mehnat bozori ehtiyojlariga, iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish istiqbollariga mos ravishda mutaxassislar tayyorlash, ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish, oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlari mazmuni va tuzilmasining mobilligini ta'minlash, real ishlab chiqarish sharoitidagi kasbiy tajribani o'rgatish uchun talabalarga yetarli sharoit yaratish hamda talabalarni ish bilan ta'minlash chora tadbirlari amalga oshiriladi.

Dual ta'limni tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- dual ta'lim tashkil etishga tavsiya etiladigan korxonalar ro'yxatini shakllantirish;
- dual ta'lim asosida oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashga bo'lgan talab va takliflarni o'rganish;
- dual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;
- korxona va oliy ta'lim tashkiloti hamda talaba o'rtasida shartnomaga tuzish;
- tashkilotlarda kafedra filiallarini tashkil etish;
- dual ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.

Ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) xususiyatidan kelib chiqib, faqat kunduzgi shakli uchun 3- va 4-kurslarda talabalarni dual ta'lim asosida o'qitish bir haftada kamida ikki kun ta'lim dasturining, nazariy qismini oliy ta'lim tashkilotida, qolgan kunlari ishlab

chiqarish bilan bog'liq amaliy qismlarini korxonada o'tkazish orqali yoki amaliyot shaklida amalga oshiriladi.

5. Fanlar katalogining tuzilishi:

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari | Umumiy yuklamaniнg hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|-------------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|----------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | | | |
| 1.01 | O'EYaT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | Fals1104 | Falsaфа | 120 | 4 | 2 |
| 1.03 | XT1104 | Xorijiy til | 120 | 4 | 2 |
| 1.04 | DSAT1104 | Dizayn sohasida axborot texnologiyalar | 120 | 4 | 1 |
| 1.05 | O'zT1104 | O'zbek (rus) tili | 120 | 4 | 1 |
| 1.06 | Dinsh1104 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 2 |
| 1.07 | DizLAs1208 | Loyihalash asoslari | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.08 | KAvR1208 | Kompozitsiya asoslari va rangshunoslik | 240 | 8 | 1,2 |

Interyer dizayni turi bo'yicha majburiy fanlar

| | | | | | |
|-------------|-----------|--|------------|-----------|----------------|
| 1.09 | Rang1612 | Rangtasvir | 360 | 12 | 1,2,3,4,5,6 |
| 1.10 | Chiz1624 | Chizmatasvir | 720 | 24 | 1,2,3,4,5,6 |
| 1.11 | IvEP1104 | Interyer va eksteryer perspektivasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.12 | SanT1104 | San'at tarixi | 120 | 4 | 2 |
| 1.13 | AvIT1104 | Arxitektura va interyer tarixi | 120 | 4 | 3 |
| 1.14 | QK1104 | Qurilish konstruksiyalari | 120 | 4 | 3 |
| 1.15 | DOKM 1520 | Dizayn obyektini kompyuterda modellashtirish | 600 | 20 | 3,4,5,6,7 |
| 1.16 | IL1530 | Interyerni loyihalash | 900 | 30 | 3,4,5,6,7 |
| 1.17 | DMAs1104 | Dizayn metodologiyasi asoslari | 120 | 4 | 4 |
| 1.18 | EvICh1104 | Ergonomika va ishchi chizmalar | 120 | 4 | 4 |
| 1.19 | Mat1104 | Materialshunoslik | 120 | 4 | 4 |
| 1.20 | MD1208 | Mebel dizayni | 240 | 8 | 5,6 |
| 1.21 | ArxL1318 | Arxitekturaviy loyihalash | 540 | 18 | 5,6,7 |
| 1.22 | TDvP1104 | Taqdimotlar dizayni va portfolio | 120 | 4 | 7 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 600 | 20 | 3, 5, 7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar</i> | 600 | 20 | 3, 5, 7 |

Kvalifikatsiya

Dizayner: interyer dizayni bo'yicha

Libos va gazlamalar turi bo'yicha majburiy fanlar

| | | | | | |
|------|----------|--------------|-----|----|-------------|
| 1.09 | Rang1612 | Rangtasvir | 360 | 12 | 1,2,3,4,5,6 |
| 1.10 | Chiz1624 | Chizmatasvir | 720 | 24 | 1,2,3,4,5,6 |

| | | | | | |
|-------------|--------------|--|------------|-----------|----------------|
| 1.11 | LDL1532 | Liboslarni dizayn-loyihalash | 960 | 32 | 3,4,5 6,7 |
| 1.12 | DMAAs1104 | Dizayn metodologiyasi asoslari | 120 | 4 | 1 |
| 1.13 | SanT1104 | San'at tarixi | 120 | 4 | 2 |
| 1.14 | TBT 1214 | Tikuv buyumlari texnologiyasi | 420 | 14 | 3, 4 |
| 1.15 | KvUBT1208 | Kostyum va uning bichimi tarixi | 240 | 8 | 3, 4 |
| 1.16 | KKvM 1316 | Kiyimlarni konstruksiyalash va modellashtirish | 480 | 16 | 4, 5, 6 |
| 1.17 | Fash IL 1208 | Fashion illyustratsiya | 240 | 8 | 5, 6 |
| 1.18 | ZMvUT 1208 | Zamonaviy moda va uslublar tarixi | 240 | 8 | 5, 6 |
| 1.19 | LM 1106 | Liboslarni maketlash | 180 | 6 | 7 |
| 1.20 | LKM 1108 | Libosni kompyuterda modellashtirish | 240 | 8 | 7 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 600 | 20 | 3, 5, 7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlari</i> | 600 | 20 | 3, 5, 7 |

Kvalifikatsiya Dizayner: libos va gazlamalar bo'yicha

Kompyuter grafikasi va badiiy foto turi bo'yicha majburiy fanlar

| | | | | | |
|-------------|-------------|--------------------------------------|------------|-----------|------------------|
| 1.09 | Rang1728 | Rangtasvir | 840 | 28 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.10 | Chiz1728 | Chizmatasvir | 840 | 28 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.11 | DMAAs1208 | Dizayn metodologiyasi asoslari | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.12 | FVO1104 | Fotoaparatura va optika | 120 | 4 | 3 |
| 1.13 | ZSF1208 | Zamonaviy softlarda fotomontaj | 240 | 8 | 4,5 |
| 1.14 | BF1707 | Badiiy fotokompozitsiya | 210 | 7 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.15 | FVT1707 | Fototexnika va texnologiyalari | 210 | 7 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.16 | BFKL1524 | Badiiy fotoni kompyuterda loyihalash | 780 | 24 | 3,4,5,6,7 |
| 1.17 | DKG1316 | Dizaynda kompyuter grafikasi | 480 | 16 | 3,4,5 |
| 1.18 | RF1106 | Raqamli fotografija | 180 | 6 | 6 |
| 1.19 | Fotojur1106 | Fotojournalistika | 180 | 6 | 7 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 600 | 20 | 3, 5,6, 7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar</i> | 600 | 20 | 3, 5,6, 7 |

Kvalifikatsiya Dizayner: kompyuter grafikasi bo'yicha

Reklama va amaliy grafika turi bo'yicha majburiy fanlar

| | | | | | |
|------|-------------|--------------------------------|-----|----|---------------|
| 1.09 | Rang1728 | Rangtasvir | 840 | 28 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.10 | Chiz1728 | Chizmatasvir | 840 | 28 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.11 | DMAAs1208 | Dizayn metodologiyasi asoslari | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.12 | Mat1208 | Materialshunoslik | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.13 | GAshIsh1312 | Grafika ashyolarida ishlash | 360 | 12 | 3,4,5 |

| | | | | | |
|---|--------------|---|-------------|------------|------------------|
| | RVAGL1707 | Reklama va amaliy grafikada loyihalash | 210 | 7 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.14 | KGD1707 | Kompyuter grafikasida dizayn | 210 | 7 | 1,2,3,4,5,6,7 |
| 1.15 | AQ1522 | Art qadoqlash | 660 | 22 | 3,4,5,6,7 |
| 1.16 | Hus1208 | Husnixat | 240 | 8 | 6,7 |
| 1.17 | PL1104 | Plakat | 120 | 4 | 5 |
| 1.18 | ZAVR1208 | Zamonaviy axborot vositalarida reklama | 240 | 8 | 5,6 |
| 1.19 | Maket1104 | Maketlash | 120 | 4 | 7 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 600 | 20 | 3, 5,6, 7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar</i> | 600 | 20 | 3, 5,6, 7 |
| Kvalifikatsiya | | Dizayner: reklama va amaliy grafika bo'yicha | | | |
| | | Jami: | 6120 | 204 | |
| | | Malakaviy amaliyot | 840 | 28 | (4,6,8) |
| | | Bitiruv malakaviy ishi | 240 | 8 | 8 |
| | | Jami: | 1080 | 36 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |
| Sanoat dizayni turi bo'yicha majburiy fanlar | | | | | |
| 1.09 | AMT1104 | Amaliy matematika | 120 | 4 | 1 |
| 1.10 | EKA1504 | Ekologiya | 120 | 4 | 5 |
| 1.11 | DM1504 | Dizaynida menedjment | 120 | 4 | 5 |
| 1.12 | ACHT11212 | Akademik chizmatasvir | 360 | 12 | 1,2 |
| 1.13 | ART13411 | Rangtasvir | 330 | 11 | 3,4 |
| 1.14 | ST1123456727 | San'at tarixi | 810 | 27 | 2,3,4,5,6,7 |
| 1.15 | DR14508 | Dizayn va reklama | 240 | 8 | 4,5 |
| 1.16 | ER1304 | Ergonomika | 120 | 4 | 3 |
| 1.17 | SHA13410 | Shakllantirish asoslari | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.18 | SQ1706 | Sanoatda qalamtasvir | 180 | 6 | 7 |
| 1.19 | KMA13410 | Kompyuterda 2-D va 3-D modellashtirish asoslari | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.20 | Bio1304 | Bionika | 120 | 4 | 3 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 1860 | 62 | 3,4,5,6,7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlari</i> | 1860 | 62 | 3,4,5,6,7 |
| Kvalifikatsiya | | Dizayner: sanoat dizayni bo'yicha | | | |
| Avtomobilsozlik dizayni bo'yicha majburiy fanlar | | | | | |
| 1.09 | AMT1104 | Amaliy matematika | 120 | 4 | 1 |
| 1.10 | FIZ1204 | Fizika | 120 | 4 | 2 |
| 1.11 | MKG1304 | Muhandislik va kompyuter grafikasi | 120 | 4 | 3 |
| 1.12 | DM1504 | Dizaynida menedjment | 120 | 4 | 5 |
| 1.13 | ACHT11212 | Akademik chizmatasvir | 360 | 12 | 1,2 |
| 1.14 | RT13409 | Rangtasvir | 270 | 9 | 3,4 |
| 1.15 | KMA13409 | Kompyuterda 2-D va 3-D modellashtirish asoslari | 270 | 9 | 6,7 |

| | | | | | |
|----------------|----------|--|-------------|------------|------------------|
| 1.16 | AT1304 | Avtomobilsozlik tarixi | 120 | 4 | 3 |
| 1.17 | MMN14508 | Mashina va mexanizmlar nazariyasi | 240 | 8 | 4,5 |
| 1.18 | NM1304 | Nazariy mexanika | 120 | 4 | 3 |
| 1.19 | AK1404 | Avtomobillar konstruksiyasi | 120 | 4 | 4 |
| 1.20 | ER13408 | Ergonomika | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.21 | SHA13408 | Shakllantirish asoslari | 240 | 8 | 3,4 |
| 1.22 | KL16710 | Kompyuterli loyihalash | 300 | 10 | 6,7 |
| 1.23 | XKA16710 | Xajmli kompozitsiya asoslari | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.24 | Bio1504 | Bionika | 120 | 4 | 5 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 1800 | 60 | 3,4,5,6,7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlari</i> | 1800 | 60 | 3,4,5,6,7 |
| Kvalifikatsiya | | Dizayner: avtomobilsozlik dizayni bo'yicha | | | |
| | | Jami: | 6180 | 206 | |
| | | Malakaviy amaliyot | 780 | 26 | (6,8) |
| | | Bitiruv malakaviy ishi | 240 | 8 | 8 |
| | | Jami: | 1020 | 34 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |

Kostyum dizayni faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar

| | | | | | |
|----------------|------------|--|-------------|-----------|------------|
| 1.09 | CHRT112316 | Chizmatasvir va rangtasvir 1,2,3 | 480 | 1,2,3 | 16 |
| 1.10 | AMAT1104 | Amaliy matematika | 120 | 1 | 4 |
| 1.11 | ST12310 | San'at tarixi 1,2 | 300 | 2,3 | 10 |
| 1.12 | KL13456725 | Kostyumni loyhalash 1,2,3,4,5 | 750 | 3,4,5,6,7 | 25 |
| 1.13 | KT13410 | Kostyum tarixi 1,2 | 300 | 3,4 | 10 |
| 1.14 | KK1456720 | Kostyumni konstruksiyalash 1,2,3,4 | 600 | 4,5,6,7 | 20 |
| 1.15 | KT1456720 | Kostyumni tayyorlash texnologiyasi 1,2,3 | 600 | 4,5,6,7 | 20 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 1800 | 60 | 3-7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlari</i> | 1800 | 60 | 3-7 |
| Kvalifikatsiya | | Dizayner: kostyum dizayni bo'yicha | | | |

Milliy kostyum dizayni faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar

| | | | | | |
|------|-------------|--------------------------------------|-----|-----------|----|
| 1.09 | CHRT112316 | Chizmatasvir va rangtasvir 1,2,3 | 480 | 1,2,3 | 16 |
| 1.10 | AMAT1104 | Amaliy matematika | 120 | 1 | 4 |
| 1.11 | ST12310 | San'at tarixi 1,2 | 300 | 2,3 | 10 |
| 1.12 | MKL13456725 | Milliy kostyumni loyhalash 1,2,3,4,5 | 750 | 3,4,5,6,7 | 25 |
| 1.13 | KT13410 | Kostyum tarixi 1,2 | 300 | 3,4 | 10 |
| 1.14 | KK1456720 | Kostyumni konstruksiyalash 1,2,3,4 | 600 | 4,5,6,7 | 20 |

| | | | | | |
|---|-------------|---|-------------|------------|------------|
| 1.15 | KKT1456720 | Kostyumni tayyorlash texnologiyasi 1,2,3 | 600 | 4,5,6,7 | 20 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 1800 | 60 | 3-7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlari</i> | 1800 | 60 | 3-7 |
| Kvalifikatsiya | | Dizayner: milliy kostyum dizayni bo'yicha | | | |
| Moda sanoati targ'iboti faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar | | | | | |
| 1.09 | CHRT112316 | Chizmatasvir va rangtasvir 1,2,3 | 480 | 1,2,3 | 16 |
| 1.10 | AMAT1104 | Amaliy matematika | 120 | 1 | 4 |
| 1.11 | ST12310 | San'at tarixi 1,2 | 300 | 2,3 | 10 |
| 1.12 | FMAR13410 | Fashion marketing 1,2 | 300 | 3,4 | 10 |
| 1.13 | FM15610 | Fashion menejment 1,2 | 300 | 5,6 | 10 |
| 1.14 | KRT1705 | Kreativ tadbirkorlik | 150 | 7 | 5 |
| 1.15 | KT13410 | Kostyum tarixi 1,2 | 300 | 3,4 | 10 |
| 1.16 | KK1456720 | Kostyumni konstruksiyalash 1,2,3,4 | 600 | 4,5,6,7 | 20 |
| 1.17 | KKT1456720 | Kostyumni tayyorlash texnologiyasi 1,2,3 | 600 | 4,5,6,7 | 20 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 1800 | 60 | 3-7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlari</i> | 1800 | 60 | 3-7 |
| Kvalifikatsiya | | Dizayner: moda sanoati targ'iboti bo'yicha | | | |
| Poyabzal va aksessuarlar dizayni turi bo'yicha majburiy fanlar | | | | | |
| 1.09 | CHRT13410 | Chizmatasvir va rangtasvir 1,2 | 300 | 10 | 3,4 |
| 1.10 | MKG11210 | Muhandislik va kompyuter grafikasi 1,2 | 300 | 10 | 1,2 |
| 1.11 | AM1106 | Amaliy matematika | 180 | 6 | 1 |
| 1.12 | PAL13456725 | Poyabzal va aksessuarlarni loyihalash 1,2,3,4,5 | 750 | 25 | 3-7 |
| 1.13 | ST13409 | San'at tarixi 1,2 | 270 | 9 | 3,4 |
| 1.14 | PAD16710 | Poyabzal va aksessuarlar dizayni 1,2 | 300 | 10 | 6,7 |
| 1.15 | CHBK1456720 | Charm buyumlarini konstruksiyalash 1,2,3,4 | 600 | 20 | 4-7 |
| 1.16 | CHBT156715 | Charm buyumlari texnologiyasi 1,2,3 | 450 | 15 | 5-7 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 1800 | 60 | 2-7 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlari</i> | 1800 | 60 | 2-7 |
| Kvalifikatsiya | | Dizayner: poyabzal va aksessuarlar dizayni bo'yicha | | | |
| | | Jami: | 6150 | 205 | |
| | | Malakaviy amaliyot | 900 | 30 | (4,6,8) |
| | | Bitiruv malakaviy ishi | 150 | 5 | 8 |
| | | Jami: | 1050 | 35 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |

| To‘qimachilik va yengil sanoat dizayni faoliyat turi bo‘yicha majburiy fanlar | | | | | |
|---|--------------|---|-------------|------------|------------------|
| 1.09 | KM1210 | Kostyum mакetlash | 300 | 10 | 4,5 |
| 1.10 | TDT1106 | To‘qimachilik dizayn tarixi | 180 | 6 | 1 |
| 1.11 | KMT11208 | Kostyum va moda tarixi | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.12 | MI15608 | Moda industriyasi | 240 | 8 | 5,7 |
| 1.13 | TBKL12345720 | Tikuv buyumlarni kompyuterda loyihalash | 600 | 20 | 2,3,4,5,7 |
| 1.14 | TBKT13457820 | Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va modellashtirish | 600 | 20 | 3,4,5,7,8 |
| 1.15 | TBT13457820 | Tikuv buyumlari texnologiyasi | 600 | 20 | 3,4,5,7,8 |
| 1.16 | TYSMJ1406 | To‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari jihozlari | 180 | 6 | 4 |
| 1.17 | M1306 | Materialshunoslik | 180 | 6 | 3 |
| 2.00 | | Tanlov fanlari | 1680 | 56 | 3,4,5,7,8 |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar</i> | 1680 | 56 | 3,4,5,7,8 |
| Kvalifikatsiya | | Dizayn: to‘qimachilik va yengil sanoat dizayni | | | |
| | | Jami: | 6000 | 200 | |
| | | Malaka amaliyoti | 960 | 32 | 3,6 |
| | | Bitiruv malakaviy ishi | 240 | 8 | 8 |
| | | Jami: | 1200 | 40 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |



Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'naliishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, yengil sanoat mahsulotlari, yengil sanoat texnologiyasi, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:


Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti

Rektor  A. Mirzoraximov

2024 yil " 25 " 06
M.O'.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Rektor  N. Sayfullayev


2024 yil " 25 " 06
M.O'

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktor  M. Boltabayev


2024 yil " 25 " 06
M.O'.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti

Rektori  S. Turabdjanov

2024 yil " 25 " 06
M.O'

O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Rais  A. Nuridinov

2024 yil " 25 " 06
M.O'

MCHJ "ZIYNAT DIZAYN"

Rahbar 

Sh. Erkaboyev

2024 yil " 25 " 06
M.O'